

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY





53	Ingliz tili darslarida chet tillariga ixtisoslashtirilgan maktablar yuqori sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini kommunikativ yondoshuv asosida rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari Qodirov A.M.....	663
54	Bo'lajak muhandis-elektriklarda intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish komponentlari va bosqichlari Qurbanov A.....	669
55	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizikaning "mexanika" bo'limiga doir turli tipdagi nostandart masalalarni yechishda o'quvchi qobiliyati xususiyatlari Raimov G.F.....	675
56	Axborot texnologiyalari darslarida talabalarni samaradorlik darajasini shakllantirishda ta'limiy resurslar foydalanish usullari Rasulov I.M.....	681
57	Xorijiy tilda interfaol usullarda muloqotga o'rgatishning pedagogik-metodik asoslari Suyarova Z.Sh.....	685
58	Jondor tumani aholi manzilgohlari va ularni tashkil etishning nazariy asoslari Toshov X.R.,Xolov Yo.D.....	691
59	Роль биологии в школьном образовании Халимова М.Р.....	694
60	Анализ педагогических механизмов образовательного процесса в формировании деятельности обучения мировому английскому языку Хасанова М.А.....	698
61	Talabalarining jismoniy tarbiya jarayonida aylanma mashg'ulotlardan foydalanishning samarali usullari Dushabaev D.Sh.....	702
62	Sports tourism as a module of elective courses of physical education and sports sciences in higher education institutions. Ziyayev A.A.....	707
63	Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlik asosida axborotlarga tahliliy munosabatini shakllantirish Siddiqov I.B.....	712
64	Bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirish asosida kasbiy fazilatlarini rivojlantirish Raupova M.M.,Narzuqulova D.H.....	717
65	Talabalarining loyihalash faoliyatida amaliy-ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdagi dolzarb muammolari Madaminov J.Z.....	724
66	Pedagogik amaliyotni amalga oshirish jarayoni tizimli tashkil qilish. Ikromov I.M.....	729
67	Oliy ta'limda metapredmet yondashuv g'oyasi va uning mohiyati Najmiddinova Y.R.....	736
68	Formation of pupils' independent thinking as an important pedagogical problem Xodjayev B.X.....	742



JONDOR TUMANI AHOLI MANZILGOHLARI VA ULARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Toshov X.R.

Dotsent,

Ekologiya va geografiya kafedrası,
Buxoro davlat universiteti

Xolov Yo.D.

Dotsent,

Ekologiya va geografiya kafedrası,
Buxoro davlat universiteti

y.d.xolov@buxdu.uz

Annotatsiya: maqolada Jondor tumanidagi qishloq manzilgohlarini hududiy tashkil etish, uning ekologik muammolari va ularni bartaraf etishning ilmiy g'oyalari kabi masalalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Jondor tumani, qishloq manzilgohlari, "sho'rlanish", "qumbosti", "garmsel", "qorasovuq", "qumbo'roni", landshaft ta'limoti, geosistema, ekosistema, biosfera, ekologik karkas konsepsiyasi, "ekologik tayanch", "ekologik sinch", "ekouy".

Аннотация: Освещаются такие вопросы, как территориальная организация сельских поселений в джондорском районе, его экологические проблемы и научные идеи по их преодолению.

Abstract: The article covers issues such as territorial organization of rural settlements in Jondor district, its ecological problems and scientific ideas for their elimination.

Kirish

Jondor tumanida qishloq manzilgohlari soni 200 dan oshadi. Ammo ularning aksariyati o'zaro qo'shilib, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 141 ta [5]. Qishloqlar va ulardagi aholi soni ham yildan yilga oshmoqda. Bugun tumanda 190 mingga yaqin kishi yashaydi. Ularning 90 % ga yaqini esa aynan qishloq manzilgohlari hissasiga to'g'ri keladi. Iqlim o'zgarishi sharoitida aholi sonining oshishi, ishlab chiqarishning kengayishi tufayli manzilgohlarda ekologik muammolar keskinlashmoqda. Bugun ularni ekologik va geografik jihatdan tahlil qilish dolzarbdir.

Asosiy qism

Jondor tumanining umumiy maydoni 517,2 ming ga bo'lib, uning 32,9 ming gektari sug'oriladi. Tumanning mazkur qismida aholi manzilgohlari – obod shahar va qishloqlar barpo etilgan. Tarixiy manbalarda Jondordagi aksariyat qishloqlarning juda qadimiyliqi qayd etilgan. Ularning katta-kichikligi, arxitekturasi, milliy, etnik tarkibi, moddiy, madaniy dunyosi, ekologik holati, jozibadorligi xilma-xil bo'lib, cho'l zonasining tabiiy sharoitiga uyg'unlashib ketgan. Ammo Jondor tumanida ham ko'plab geoeologik muammolar bor, ularni bartaraf etish hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Tumanning geografiyasi va ekologiyasiga oid ilmiy ishlanmalarning ba'zilarida Buxoro viloyati aholisi kabi bu joy aholisi ham qadimdan "sho'rlanish", "qumbosti", "garmsel", "qorasovuq", "qumbo'roni" kabi o'ndan ortiq tabiiy ofatlardan aziyat chekib kelayotganligi qayd etilgan [1].

Bugungi kunda qadimgi qishloqlar bilan yonma-yon "yangi" zamonaviy qishloqlar ham qad ko'tarmoqda. Ular milliy qadriyatlarimizni o'zida mujassamlantirgan manzilgohlardir.



Qishloq manzilgohlari hududlarini oqilona tashkil etishda landshaft ta'limoti, geosistema va ekosistema ta'limotlari, biosfera ta'limoti, ekologik karkas konsepsiyasi va boshqalar asosida ish yuritish, ulardagi qator ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishda nazariy asos bo'ladi.

Hududning ekologik karkasi hamda hududning landshaft-ekologik karkasi konsepsiyalari ham bu sohada qator ustuvor xususiyatlarga ega. Ma'lumki, karkas fransuz so'zidan olingan bo'lib, carcasse – sklet degan ma'noni anglatadi.

Bugungi kunda fan, qurilish-arxitektura sohalarida hududning tabiiy, tabiiy-ekologik, ekologik, landshaft-ekologik karkasi, ekologik infrastrukturasi kabi atamalar keng qo'llanilmoqda. Jumladan geografiya va ekologiya fanlarida bu tushuncha allaqachon o'z o'rniga ega bo'lgan. Ammo nazarimizda uning talqinida biroz chalkashliklar mavjud. Ko'pgina mualliflar tomonidan ekologik karkas "ekologik tayanch", "ekologik sinch" kabi iboralar orqali ifodalanmoqda. Bizningcha, yuqoridagi iboralar "ekologik karkas"ning asl mohiyatini anglatishi munozaralidir.

Bugungi kunda har qanday hududning "ekologik karkas"ini oqilona tashkil etish orqali uning tabiatidan oqilona foydalanish hamda muhofazasi masalalarini ijobiy hal etish yo'lidir. Bu cho'l tabiat zonasida joylashgan, hududi tobora kengayib, zamonaviylashib borayotgan Jondor tumani qishloq manzilgohlari uchun strategik dastur bo'laoladi.

Tuman qishloqlari joylashuvini geografik jihatdan 3 qismga bo'lish mumkin. Birinchisi, vohaning markaziga yaqin qishloqlar (Ko'liyon, Arablar, Mirzayon va b.), ikkinchisi, o'rta qismidagi qishloqlar (Oydin, Demun va b.), uchinchisi, vohaning chekkasida, ya'ni cho'lga tutash hududlarda (bufer zonada) joylashgan qishloqlar (Oqshix, Lolo, Luqmon va b.). misol bo'ladi.

Jondor tumani qishloq manzilgohlari uchun hududning "ekologik karkas"ini oqilona tashkil etishda geografik va ekologik omillarni atroflicha tahlil qilish zarur.

Jondor tumani qishloq manzilgohlarining geografik o'rni quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Havza nazariyasi nuqtai nazaridan qishloq manzilgohlari Quyi Zarafshon mintaqasida joylashgan. Ma'lumki, Quyi Zarafshon mintaqasida abiotik oqimlar "Havza nazariyasi" orqali o'rganilgan [2].

2. Mazkur hududning iqlimi tipik cho'l zonasi iqlimidir.

3. Tuman qishloq manzilgohlari Buxoro vohasining g'arbiy, janubi-g'arbiy qismida, oqar suv manbalariga ega bo'lmagan hamda yer va suv resurslari cheklangan hududdir.

Jondor tumani qishloq manzilgohlari quyidagi ekologik omillar ta'sirida bo'ladi:

1. Jondor tumani qishloq manzilgohlarining ekologik vaziyatida hududning paleogeografik o'tmishi yetakchi omillardan sanaladi. Chunki hozirgi qishloq manzilgohlarining landshaftlari uzoq davr va turli tabiiy geografik sharoitlarni boshidan kechirgan va o'tmish davrlar tabiiy sharoiti bilan bog'liq yaratilma, qoldiqlarni o'z «xotira»larida saqlab keladi. Bu merosiy (relikt) yaratilmalar esa o'z navbatida hozirgi qishloq landshaftlarining negizi barqarorligi, biomahsuldorligi, ekologik sifatlariga, xullas ularning ijtimoiy salohiyatini belgilab turadi.

2. Jondor tumani qishloq manzilgohlari ekologik vaziyatiga gidrologik omillar (yer usti va yer osti suvlari) ta'siri katta;

3. Hududning yer usti aerodinamik (asosan shamol) oqimlari yil davomida qishloq manzilgohlarida o'ziga xos salbiy ta'sirlar qiladi. Demak, yuqoridagi geografik va ekologik



omillarni hisobga olib, avvalo Jondor tumani qishloq manzilgohlarining "ekologik karkas"i tarkibini hozirgi kundagi holatini tahlil qilish va baholash lozim.

Tuman "Ekologik karkas"ining tarkibi quyidagicha:

1. Cho'l zonasidagi o'rmonzorlar (113,447 ga)
2. Varaxsha (tarixiy) tabiat yodgorligi
3. Qoraqir davlat ornitologik buyurtma qo'riqxonasi (Jondor tumaniga faqat janubiy qismi tegishli)
4. Jondor magistral kanali
5. Qishloq manzilgohlarining yo'llar bo'yi "yashil yo'laklari"

Xulosa. Jondor tumani qishloq manzilgohlarini "Ekologik karkas" tamoyili asosida takomillashtirish bo'yicha xulosalar va takliflar:

1. Tumani qishloq manzilgohlarining namunaviy uy-joylarini loyihalashda cho'l zonasi iqlimini hisobga olish lozim. Ayniqsa, uylarning yo'nalishini ufq tomonlariga mos, shamol yo'nalishlariga ro'para qilmay qurish maqsadga muvofiqdir. Bu sohada qator ilmiy ishlanmalar e'lon qilingan [3,4].

2. Tumani qishloq manzilgohlari joylashgan hududlarda doimo yer osti suvlari sathi va tarkibini o'rganish hamda kerakli chora-tadbirlarni belgilab borish lozim.

3. Vohada yer va suv zahiralari cheklanganlini hisobga olib, 2-3 qavatli uylarni qurish va bu sohadagi ishlarni rag'batlantirish.

4. "Ekouy"lar qurish loyihalarini tayyorlash. Jumladan, ularning tomlariga tushgan atmosfera yog'inlarini to'plash imkoniyatlarini yaratish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Холов Ё.Д., Тошов Х.Р., Қўчқорова Д. Жондор тумани географияси ва экологияси Тюркоязычное страны. Республиканский научно-методическая и познавательная журнал. **Казахстан. Алматы** № 1 (41) 2022 г.10-13 б.
2. Назаров И.К. Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природопользования. (На материалах нижней части р. Зарафшан). Ташкент, «Фан», 1992.-101 с.
3. Назаров И. Аллаёров И. Ташов Х.Р. Народный опыт как основа оптимизации природопользования в аридной зоне Узбекистана. **Ўзбекистон жанубий районлари табиати ва хўжалигини мажмуали ўрганиш нинг долзарб масалалари.** Қарши, 1991 й. II қисм. 295 б.
4. Ташов Х.Р. Ташов М.Х. Климатический фактор и историческая традиция в организации территории г. Бухары. Тюркоязычное страны. Республиканский научно-методическая и познавательная журнал. **Казахстан. Алматы** № 1 (21) 2017 г. С. 6 – 7.
5. Турсунов М. Жондор ва жондорликлар. Бухоро. "Бухоро нашриёти". 1995.